

NUROTA TUMANI AYRIM AGIYOTOPONIMLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Absodiqova Sevara Suyun qizi,
Navoiy davlat universiteti tillar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyatining Nurota tumani hududida uchraydigan ayrim agiyotoponimlarning tarixiy-lingvistik, etnomadaniy va semantik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: agiyotoponim, toponimika, Nurota tumani, etnonim, masjid nomlari, tarixiy-lingvistik tahlil, etnomadaniyat, onomastika, semantik tahlil, xalq etimologiyasi, geografik nomlar.

Annotation. This article comprehensively analyzes the historical-linguistic, ethnocultural and semantic features of some agiotoponyms found in the Nurota district of Navoi region.

Keywords: agiotoponym, toponymy, Nurota district, ethnonym, mosque names, historical-linguistic analysis, ethnoculture, onomastics, semantic analysis, folk etymology, geographical names.

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ историко-лингвистических, этнокультурных и семантических особенностей некоторых агитопонимов, встречающихся в Нуротском районе Навоийской области.

Ключевые слова: агитопоним, топонимия, Нуротский район, этноним, названия мечетей, историко-лингвистический анализ, этнокультура, ономастика, семантический анализ, народная этимология, географические названия.

Kirish. Toponimlarning nomlanishida tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalar, shu hududda yashovchi aholining iqtisodiy-siyosiy munosabatlari, urf-odatlar, an‘analari, madaniy hayot tarzi kabi omillar ham muhim ahamiyat kabs etadi. Bunday toponimlarga xalqning etnik tarkibi, kishi ismlari, diniy tushuncha va tasavvurlar, aholining kasbi-kori, ijtimoiy qatlami va milliy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar kiradi.

Til lug‘at tizimidagi mavjud birliklarning bir qismini onomastik leksika tashkil etadi. Onomastik leksikaning asosiy yo‘nalishi hisoblangan toponimlar, shu jumladan, agiyotoponimlar alohida bir leksik qatlam sanaladi.

Nurota agiyotoponimlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular bir necha tarixiy qatlamni o‘zida saqlagan.

Adabiyotlar tahlili. Diniy tushuncha va tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan ob‘ektlar, muqaddas joylar nomi nomshunoslikda *agiotoponimlar* deb yuritiladi. Masjidlar nomi ham muayyan o‘rinni bildiruvchi atoqli ot sifatida agionimlarga kiradi. Ma‘lumki, masjidlarda islom dini bilan aloqador bo‘lgan diniy marosimlar, rasm-rusumlar ado etiladi. Nurota tarixdan ma‘lumki, bu joy islom rivoj topgan muqaddas maskanlardan biri bo‘lgan. Bu hol undagi masjidlar nomida ham o‘z ifodasini topgan: Oqmachit, Sayidota masjidi, Avazxo‘ja masjidi, Arabguzar, Kattagumbaz, Jome masjidi.

Nurotaning ulug‘ joy, ziyoratgoh ekanligi xususida Narshaxiy shunday yozadi: “Nur katta joy. Unda masjidi jome bor; u ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko‘p

mubolag'a qiladilar. Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo'ladi. U ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni hovoza band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobeinlardan ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar, xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo'lsin!

Nurotadagi eng qadimgi masjid chashmadagi "Chilustun" Jome masjidi bo'lib, u birinchi marta VIII-IX asrlarda Shayx Abul Hasan Nuriy davrida qurilgan. Nurotadagi ba'zi masjidlarning qurila boshlanganiga qariyb ming yil bo'lgan. Bu masjidlar bir necha marotaba qayta qurilgan va oxirgi qurilgan sanasi va kim tomonidan qurilganligi yozib qoldirilmagan. Domalla mahallasidagi Domalla masjidi 1916 yilgacha bir ustunli bo'lgan. Eskirgan masjid o'sha yili buzilib, bir necha ustunli etib ikki qavat cho'pkoridan qurilgan.

"Chilustun" masjidining dastlabki qurilgan vaqti Shayx Abul Hasan Nuriy yashagan davrga (VIII-IX asrga) to'g'ri keladi. "Chilustun" masjidi O'rta Osiyo zaminida qurilgan eng ko'hna ibodatxonalaridan biridir. Masjid to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uning sathi 20x30 ni tashkil etadi.

"Panjvaqta" masjidi besh vaqt namoz o'qish uchun mo'ljallangan bo'lib, u 1582 yilda Buxoro xoni Abdullaxon buyrug'i bilan qurilgan. Masjidning ikkita chillaxona va mehrobi yaxshi saqlanmagan.

Nurotadagi qal'alardan eng mashhuri Nur//Nurota qal'asidir. Manbalarda yozilishicha, Nur qal'asi O'rta Osiyoda islomga qadar qurilgan antik arxeologik yodgorliklardan biri sanaladi. Mahalliy xalq qal'ani "Qal'ayi Iskandariy" deb ushbu tarixiy obidani Iskandar Zulqarnayn nomi bilan bog'laydi.

Nur – qadimdan Jizzaxdan so'ng Buxoro va Samarqand vohasiga kiriladigan ikkinchi darvoza hisoblangan va o'zining istehkomlari bilan mashhur bo'lgan.

V.A.Nilson (1953 y.), YA.G.Fulomov (1968 y.) lar tomonidan olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasi shuni ko'rsatdiki, qal'aning ostki madaniy qatlami eramizdan burungi asrlarda bino bo'lgan. Ushbu qal'a mashhur Nur chashmasining ustki qismida suv boshiga egalik qilish va dushman qamaliga bardosh berish maqsadida qurilgan. Qal'aning asosiy arxitektura qismi eramizning IV–VI asrlarida qayta tiklangan. VIII asr boshlarida qal'a arablar tomonidan buzib tashlangan va Somoniylar davrida yana tiklangan.

Nur qal'asi XIII asrda yanada mustahkamlanib qadimgi poydevor ustiga kuzatuv punktlari qurilgan. Qal'a kompleksi tosh va xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, qo'rg'onlar osmondagi kichik ayiq yulduzlari turkumini eslatadi. Qal'aning ichki tuzilishi noma'lum. Lekin qo'rg'onlar yer ostidan bir-birlari bilan bog'langanligini hozirgacha saqlangan laxm (tonnel) ko'rsatib turibdi. Tog' cho'qqisida qurilgan kuzatuv punkti va Ark 120 metrli usti yo'l bo'lgan mustahkam devor bilan tutashtirilgan.

Nurota – muqaddas qadamjoy, ziyoratgoh ma'nosida. Chunki ko'pgina avliyolar o'sha joyda dafn etilgan. Muqaddas qadamjoylar, qabrlar, qabristonlar nomi.

Muhokama va natija. Inson dafn qilingan joylar – qabrlar, qabristonlar va boshqa xil ana shu tipdagi o‘rinlar nomshunoslikda **nekronimlar** deb yuritiladi. Nurota toponimiyasi nekronimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bular asrlar davomida nurotalik ajdodlarimiz abadiy uyquga ketgan, keyingi avlodlar esa muqaddas bilib kelgan, sig‘ingan qadamjoylardir.

Nurota o‘rta asrlarda Buxoro vohasidagi eng muqaddas shaharlardan sanalgan. Chunki shaharda ko‘plab azizlarning qabrlari va qadamjolari mavjud: Mozori chilla (Xo‘ja Ubaydulloh qabri); Mozori Sangdoz (Ahmad Pahlavon Sangidast qabri); Mozori Bandikusho (Xo‘ja Burhoniddin qabri); Bibi Sitta (Bibi Sitta Tachalboz qabri); Shayx Abu Muhsin Rumi qabri.

Fozg‘on qishlog‘ida Shohimardon assambleyasida Hazrat qadamjosi hamda Dehibaland qishlog‘ida Imom Hasan va imom Husan hamda Bibi Fotima va Bibi Zuhro qadamjolari qurilgan bo‘lib, uzoq Makka safariga borolmaydiganlar «Nurga ziyoratga borsalar, ularning haji qabul bo‘ladi», – degan naql ana shu muqaddas joylar tufayli aytilgan.

Nurota shahridan to‘rt kilometr shimolga qarab yurilsa, hozirgi Mozor qishlog‘iga boriladi. Qishloqda qadimiy qal‘aning xarobalari mavjud. Ko‘hna qal‘aning taxminan o‘rtalarida mo‘jazzgina maqbara ko‘zga tashlanib turadi. Bu Xo‘ja Ahmadi Kibor maqbarasidir.

Yuqorida Nurota mikrotoponimiyasining asosiy tiplarini tahlil qildik. Ushbu toponimlarning har biri bitta yoki birdan ortiq toponegizlardan yasalgan atoqli otlardir. Ammo ushbu toponegizlarning ba‘zilari toponimiya tarkibida faqat bir marta uchrasa, ba‘zilari bir necha marta ishtirok etadi, ayrimlari esa ko‘plab nomlar tarkibida uchraydi. Demak, ushbu qonuniyatga ko‘ra, toponimlarni hosil qiluvchi negizlar toponimlar miqdoridan kam bo‘ladi.

O‘zbek tilida so‘zlar ko‘p, ammo bu so‘zlarning barchasidan ham toponimlar yasalmaydi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi toponimlarni hosil qilishda toponimiya sistemasi talab va ehtiyojlarini qondira oluvchi ma‘lum miqdor so‘zlar qatnashadi. Mana shu so‘zlar majmui nomshunoslikda toponimik leksika, toponegiz, topoleksema deb yuritilmoqda. Ma‘lum hudud toponimiyasi negizida yotgan topoleksemlarni, ularning miqdorini aniqlash ma‘lum ahamiyatga ega.

Nurota tumani toponimlari necha ming yillar davomida bu hududda yashab kelayotgan xalqning ma‘naviy merosi va madaniy mulki bo‘lib xizmat qiladi. Nurota hududi tarixan turli turkiy qabilalar kesishgan hudud bo‘lgan; urug‘-qabila tizimi uzoq vaqt davomida ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynagan; etnotoponimlar siyosiy va tarixiy voqealarning lingvistik aksidir; joy nomlari hudud aholisining tarixiy xotirasini saqlab qoluvchi madaniy merosdir. Shu sababli Nurota agiyotoponimlarini kompleks o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va antropologiya fanlari uchun ham muhim

ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: Fan, 1966.
2. Begaliyev N. O‘zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand, 2004.
3. O‘rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlarining izohi). – Samarqand: Zarafshon, 2003.
4. Kosh g‘ariy Mahmud. Devonu lu g‘atit turk. I tom. – Toshkent: Fan, 1960.
5. Tohirov Sh.. Abul g‘ozi Bahodirxon. “Shajarayi tarokima”. – Samarqand: So‘g‘diyona, 1995.
6. Ataniyazov S. Etnonimy v turkmenskoy yazyk: Avtoref. dis. ... d-ra filol. nauk. – Ashxabad, 1990.
7. Otajonova A. Xorazm etnotoponimlari va ularning lug‘aviy asoslari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1996.

